


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-oktyabr)

2018 yilning yanvar-oktyabr oyida Viloyatda 2913 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1087 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2135 ta (13,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17760 tani tashkil etgan.


Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,0 % savdoda, 14,5 % sanoatda, 10,4 % qurilishda, 10,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,4 % tashish va saqlash, 2,8 % sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa, va 27,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tuman va shaharlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Buxoro viloyati	18713	17760	100	100
Buxoro tumani	1399	1262	7,5	7,1
Vobkent	838	808	4,5	4,5
Jondor	1266	1218	6,8	6,9
Kogon tumani	970	900	5,2	5,1

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Olot	645	533	3,4	3,0
Peshku	1133	1091	6,1	6,1
Pomitan	1408	1365	7,5	7,7
Shofirkon	1154	1047	6,2	5,9
Qorako'l	960	914	5,1	5,1
Qorovulbozor	345	337	1,8	1,9
G'ijduvon	2004	1861	10,7	10,5
Buxoro sh	5947	5798	31,8	32,7
Kogon sh.	644	626	3,4	3,5

2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 2913 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 59,5% ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (907ta), Romitan (307 ta), G'ijduvon (259 ta) va Shofirkon (193 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (66 ta), Olot (91 ta) hamda Vobkent (106 ta) tumanlari da tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (487 ta), sanoatda (466 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi (440 ta) va qurilishda (384 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (36ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta), hamda tashish va saqlashda (113 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	2017 yil 1 noyabr xolatiga			2018 yil 1 noyabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	422	162,9	23,1	466	110,4	16,0
Savdo	276	73,0	15,1	487	176,4	16,7
Qurilish	206	100,5	11,3	384	186,4	13,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	367	152,9	20,1	440	119,9	15,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	180	116,1	9,9	254	141,1	8,7
Tashish va saqlash	89	61,4	4,9	113	127,0	3,9
Axborot va aloqa	30	63,8	1,6	36	120,0	1,2
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	54	138,5	3,0	81	150,0	2,8
Boshqa turlari	202	128,7	11,1	652	3,2m.k	22,4


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 14585 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3040 ta, oilaviy korxonalar – 924 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10253 ta va boshqalar 368 tani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 145 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 59 taga yoki 68,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 84 ta (57,9 %), Kogon tumani va Buxoro tumanlarida 10 tadan (6,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qorovulbozor va Shofirkon tumanlarida 2 tadan (1,4%) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 78 ta (53,8 %), savdoda 21 ta (14,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 15 ta (10,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (4,7 %), qurilishda 8 ta (5,5 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (9,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlashda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-oktyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 53 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi – 10 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Koreya Respublikasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-3 ta, Eron Islom Respublikasi – 3 ta va boshqa davlatlar rezidentlari kapitali ishtirokida 21 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Rossiya Federasiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Janubiy Koreya, Hindiston, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktyabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 8 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6 ta qurilishda 5 ta, va boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2017 yil yanvar-oktyabr			2018 yil yanvar-oktyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %
Sanoat	8	160	61,5	20	2,5 m.k	37,7
Savdo				8		15,1
Qurilish	1		7,7	5	5,0 m.k	9,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1		7,7	6	6,0 m.k	11,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar				7		13,2
Tashish va saqlash				1		1,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				1		1,9
Boshqa turlari	3		23,1	5	166,7	9,5

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14455 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 14,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4953 tasi (34,4 %) Buxoro shahriga, 1525 tasi (10,5 %) G'ijduvon, 1136 tasi (7,9 %) Romitan hamda 1045 tasi (7,2 %) Buxoro tumanlarilari hissalariga to'gri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14455 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3704 tasi (25,6 %) – savdoda, 2532 tasi (17,5 %) - sanoatda, 1829 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1750 tasi (12,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 1138 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1121 tasi (7,8 %) - tashish va saqlashda, 414 tasi (2,9 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 193 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1774 tasi (12,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 2559 tadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (826 ta), Romitan (275 ta), G'ijduvon (226 ta) va Jondor tumanlarida (170 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (61 ta), Olot (76 ta) hamda Vobkent (87 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (485 ta), sanoatda (465 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (437 ta) va qurilishda (384 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta), axborot va aloqada (36 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 978 tani tashkil etib, ulardan 924 tasi yoki 94,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 42,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 32,4 % yoki 299 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,3 % yoki 262 tasi sanoat, 14,0 % yoki 129 tasi savdo, 13,4 % yoki 124 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,4 % yoki 22 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,1 % yoki 10 tasi qurilish, 0,9% yoki 8 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, hamda 6,8 % yoki 63 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Buxoro viloyat Statistika boshqarmasi
statistik registrni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-20 (21)**